CHET TILINI O'QITISHDA BILIM DARAJASI TURLI XIL BO'LGAN TALABALARDA DARSDAGI MOTIVATSIYANING O'RNI

Alimova Dilrabo

INTERNATION o'quv markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda turli bilim darajasidagi talabalarga chet tilini o`qitish masalalari yoritiladi. Multi – Level turli bilim darajasidagi talabalarni ingliz tiliga o'qitishda motivatsiyani o'rni va ahamiyati haqida hamda o'qituvchini talabalar motivatsiyasini uyg'otishi til o'rganuvchilar uchun dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuga qiziqtirishning eng mahsuldor usullaridan biri ekanligi borasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Motiv, omil, ichki va tashqi motivatsiya, integratsiya, psixologik jarayon, autentik, o'quv motivatsiyasi.

KIRISH

Ta'lim jarayonida guruhlarda Multi – Level turli bilim darajasidagi talabalarni mavjudligi chet tillarni o'qitish jarayonida ularga yangi mavzuni o'zlashtirishda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi o'qituvchilar tomonidan kuzatilgandir. Bilim darajasidagi nomutanosib farq nafaqat talabalarni mashg'ulot davomida bilimini rivojlanishiga yoki mustaqil izlanishlariga, balki chet tillarni o'rganishlariga bo'lgan ishtiyoqlarini so'nishiga ham ta'sir qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Gardnerning tabiriga ko'ra «Motivatsiya chet tilini o'rganish jarayonidagi eng muhim elementlardan biri bo'lib, an'anaviy ravishda tilning tuzilishini ya'ni lug'at, talaffuz, grammatika va tilning asosiy to'rtta ko'nikmalarini qamrab oluvchi lingvistik natijalar nuqtai nazaridan til yutuqlariga hissa qo'shuvchi omil» sifatida baholaydi [1]. Boshqacha qilib aytilganda odamlardagi motivatsiya nafaqat darajasi va miqdorining xar xilligi bilan, balki ularning turlari ham xar xil bo'lishi mumkinligi bilan ajralib turishligini e'tirof etadi.
C.L.Rubinshteyn esa «Motivatsiya bu dunyo tomonidan inson xatti-harakatlarining sub'ektiv belgilanishi, uni aks ettirish jarayonidir" deya ta'rif berib, aynan qiziqishni esa motivdir deb ko'rsatadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Dars jarayonida talabalarning til o'rganishdan maqsadlari turlicha bo'lganligi sababli, o'qituvchilar talabalarning maqsad va ehtiyojlarini aniqlashlari va to'g'ri motavatsion strategiyalarni ishlab chiqishlari zarurdir. Chunki bugungi kun talabalariga faqatgina qiziqarli ma'lumotlarni taklif qilishimiz yetarli emas.
Motivatsiya (lot. movere) so'zdan olingan bo'lib, harakatlanish uchun turtki degan ma'noni anglatadi. Bu insonning xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo'nalishi talabalarining faolligi va barqarorligini belgilaydigan psixofiziologik jarayondir. Bunda tana ham, ruhiyat ham ishtirok etishi shart bo'lib, insonning o'z ehtiyojlarini faol qondirish holatidir. Motiv esa, inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil yoki vajdir. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida namoyon bo'luvchi ichki turtkidir. Psixologiya fanining nazariyotchilari motivatsiyani ikki turga, ya'ni ichki va tashqi

motivatsiyaga ajratishadi. Bu terminni yorqinroq ifoda etish uchun biz oddiy misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz:

- ichki motivatsiya bu talaba biron bir ishni shunchaki yoqqanligi uchun bajarishidir.
- tashqi motivatsiya esa talaba shu ishdan biror manfaat topib bajarganda yuzaga keladi.

Masalan: talabaning ingliz tilidagi o‘zi qiziqqan matnni shunchaki yoqqanligi uchun tarjima qilishi bu ichki motivatsiyadir. Xuddi shu matnni yaxshi baho olishi uchun yoki ikki baho olmasligi uchun majburan tarjima qilishi esa tashqi motivatsiyadir. Demak, ichki motivatsiya yuzaga kelgan vaqt talaba butun g‘ayrat va shijoatini, bilimini, qiziqishini ishga solib bajargan faoliyati tushunilsa, tashqi motivatsiya o‘zining passivligi bilan xarakterlanadi.

Ba’zan ayrim o‘qituvchilarning xatosini ularning ta’lim jarayonida faqatgina tashqi motivatsiyaga suyanib qolishida ko‘ramiz. Turli sovg‘alar, mukofotlar, maqtov yorliqlari va ba’zan jarima, qattiq tanbeh, hatto jismoniy choralar ko‘rinishidagi jazolar ostida dars jarayonini tashkil qilishini kuzatamiz. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘qituvchi bunday xatti-harakatlari orqali ichki motivatsiyasi bor o‘quvchining aynan ana shu ichki motivatsiyasini yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Tashqi motivatsiyaga urg‘u berilgan darslarda talaba mavzuga oid ma’lumotni emas unga berilgan mukofot yoki jazoni eslab qolishi muqarrardir. Bundan tashqari mukofot yoki jazo vaqt o‘tishi bilan o‘z ta’sirini yo‘qotadi yoki talabalarda motivatsiyani saqlab qolish uchun mukofot va jazolarni darajasini tobora oshirib borishga to‘g‘ri keladi. Natijada talaba tomonidan mukofot yoki jazo qo‘llanilmaganda motivatsiya butunlay yo‘qoladi. Shu sababli dars jarayonidagi asosiy e’tibor jazo va mukofotlarga yoki baho va imtihonlarga emas fanning o‘ziga qaratilishini talab qilinadi.

Dars jarayonidagi o‘quv motivatsiyasini shakllantirish masalasi yaqin yillargacha alohida muammo sifatida ko‘rib chiqilmagan. Ayniqsa turli bilim darajasidagi talabalarni o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga doir ilmiy ishlanmalar yurtimizda kamligi bilan xarakterlanadi. Lekin buni aksini xorijiy mutaxassislarning aynan turli bilim darajasidagi talabalar bilan ishlashda motivatsiyaning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarida bu sohani rivojlantirishga keng e’tibor qaratilganini va maxsus tamoyillar ishlab chiqilganini ko‘rishimiz mumkin. Lekin didaktik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarni o‘qitilayotgan fanga qiziqtirish ya’ni motivatsiyasini uyg‘otish tamoyillari psixologiya sohasi vakillari tomonidan allaqachon ishlab chiqilib bo‘lingandir.

Talabalarning til bilish darajasini baholash uchun so‘rovnomadan foydalanish. Talabalarning til o‘rganish jarayonidagi xavotirlari va qiziqishlari, dars jarayoni haqidagi fikrlarini aniqlashtirish uchun tayyorlangan so‘rovnomalar ham ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Buni albatta o‘quv kursining boshida va oxirida olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu so‘rovnoma orqali talabalarning qay darajada bilim darajasi oshganligini aniqlashtirilsa bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki turli bilim darajasidagi talabalarni o‘qitishda sohaga doir matnlar, mashqlar, texnika va usullardan foydalanish ularning motivatsiyani oshishiga xizmat qiladi. Lekin talabalarning motivatsiyasini uyg‘otishda o‘qituvchi tomonidan darsni to‘g‘ri tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bilim darajasi xar xil bo‘lgan talabalarni qiziqishini saqlab qolish yoki til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish o‘qituvchining zimmasida ekanligi yana bir karra isbotlandi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Gardner R.C (2011). Integrativ motivatsiya va ikkinchi tilni o'zlashtirish. Z. Dornyei & R.Schmidt (Eds.), Motivatsiya va ikkinchi tilni o'rganish. 1-20-betlar. Gonolulu, HI: Gavayi universiteti matbuoti.

2. S.L. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari. – SP b: Piter 2018. P.526-527
3. Sidorenko E.V. Motivatsion trening. – M.: Rech, 2015. B. 240
4. Noemi Ollero Ramires. Chet tilini o‘rganish jarayonida motivatsiyaning ta’siri. http://dx.doi.org/10.6035/ ForumRecerca.2014.19.44.№ 19/2014.pp.695-707